

QADIMGI XETT PODSHOLIGI MA'DANIYATISHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**SHDPI 1-KURS TALABASI **Erkinova Sumayya**

ANNOTATSIYA : Ushbu maqolada Qadimgi Xet podshligi madaniyati va miloddan avvalgi 2- ming yillikning o'rtalarida Anatoliya , Suriyaning ba'zi qismlari va Iroqning janubi-g'arbida joylashgan Xetlar xalqi tomonidan yaratilgan boy madaniyat haqida so'z boradi. Bu madaniyat siyosiy , iqtisodiy, diniy va ijtimoiy tizimlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib , Xetlar o'zlarining aniq qonunlari, davlat tuzilishi va savdo aloqalari bilan tanilgan.

KALIT SO'ZLAR: Anatoliya , Suriya , Iroq , Teshub , Xattusi , Telepin , Kiliki, Sandan , Akkad ,Kikkuli .

KIRISH : Xetlar o'ziga xos madaniyatni yaratdilar. Xetlar jamiyatida qonunlar shakllantirilgani, xett yozuvining mavjudligi madaniyatning ravnaqidan dalolat beradi. Mixxat va ierogliflardan keng foydalanilgan. Xett jamiyatining o'z madaniy taraqqiyotida Misr va Mesopotamiyaning yuksak madaniyatlari ta'siri yaqqol seziladi. Xett madaniyatida, ayniqsa, xurritlarning ta'siri kuchli bo'lgan. Xett dini o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan. Xetlarning ming ma'bud va ma'budalari to'g'risida manbalarda eslatishlar mavjud. Amalda esa, cheklangan miqdorda ilohlarga sig'inilgan. Poytaxt Xattusining oliy homiysi chaqmoq xudosi bo'lgan. U bilan birga, xurritlarning chaqmoq xudosi Teshubga ham sig'inilgan. Xattusida quyosh, hosildorlik xudosi Telepinga va mahalliy Kilikiya hosil xudosi Sandanga e'tiqod qilingan. Podsho quyoshga o'xshatilib ilohiylashtirilgan. Shu sababli, xetlar o'z podsholarini «quyoshim» deb sig'inganlar. Jahon adabiyotidagi eng birinchi yozilgan tarjimayi hol Xattusili III ning tarjimayi holi matni hisoblanadi. Xett yozma asarlaridan bizgacha yetib kelgan podsholarning «tarjimayi hollari» juda qiziqarli va batafsil bayon qilingan. Ularda yorqin obraz- lar, chuqur kechinmalar va o'ziga xos axloqiy qarashlar seziladi. Xett yilnomalarida mamlakat tarixini uch davrga bo'lishga urinish yaqqol ko'zga tashlanadi. Xett arxivlarida boshqa mamlakatlar, masalan, Akkad tarixi to'g'risida ma'lumotlar ham mavjud. O'rta va Yangi Xett podsholliklari davrida Xett adabiyotida duo-afsunlar alohida o'rin tutadi. Qadimgi xett dafn qo'shig'i xett poeziyasining yagona namunasi. Xett podsholigining boshqa xalqlar bilan yaqin aloqasining mavjudligidan dalolat beradigan yana bir madaniy yodgorlikuch tilli shumer-bobil-xett lug'atlarining tuzilishidir.[1]

TAHLIL VA NATIJALAR : Qadimgi xetlar o'zlariga xos madaniyat yaratganlar. Ular Mesopotamiya, Kavkaz va O'rtayer dengizi sohilidagi mamlakatlar madaniyatlaridan ko'p narsalarni qabul qilgan. Ular shumer-akkad alifbosi asosida Xett ieroglifi va mixxatsimon yozuvlarini yaratganlar. Mil.avv. 1280-yilda xett podshosi Xattusili III Ramzes II o'rtasida tuzilgan do'stlik bitimi shumer-akkad, Xett va Misr tillarida shu iyerogliflar bilan yozilgan ekan. Xetlarda astronomiya, matematika, geometriya, tarix. agronomiya, veterinariya, tabobat va boshqa fanlar o'z davrida ancha rivoj topgan edi. Qadimgi Xetlarda haykaltaroshlik, toshta- roshlik, qabartma rassomchilik va qoyatoshlarga rasm ishlash ham rivoj topgan edi. Ular asosan xudolar. podsholar, jangchilar, har xil hayvon, ot, jangovar arava va boshqa narsalarning haykallari rasmlarini mohirlik bilan ishlaganlar. "Ullikumin haqida qo'shiq" va "Telepin haqidagi afsonalar Xett adabiyotining eng ajoyib namunalari hisoblanadi. O'sha zamonlarda "Suppilulium I solnomasi", "Mursili II solnomasi" va "Xattusili III tarjimayi holi" kabi tarixiy asarlar ham yaratilgan. Yangi podsholik davrida esa mesopotamiyaliklarning "Gelgamesh haqida dostoni, Gesiodning "Teogoniya" kabi asarlari xett tiliga tarjima qilingan. O'sha davrda yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar xetlar hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. [2].

Qadimgi Xett jamiyatining yuksak madaniy taraqqiyotini arxeologik topilmalarga asoslanib tadqiq etilsa, unda Qadimgi Misr va Mesopotamiya madaniyatlari ta'siri bo'lganini ko'rish mumkin. Xett madaniyatida ayniqsa xurrit xalqlarining ta'siri kuchli bo'lgan. Qadimda boshqa dinlarda bo'lgani kabi xetlar e'tiqodi ham o'ziga

xos belgilarga ega bo'lgan. Ularda mingga yaqin ma'bud va ma'budalar afsona va yozma manbalarda keltiriladi. Ammo ko'pincha aholining aksariyati oz miqdordagi ilohlarga sig'inishganligi ta'kidlanadi. Mamlakat poytaxti Xattusaning oliy homiysi chaqmoq xudosi edi. Xurrit xalqlarining chaqmoq xudosi Tesubga (yoki Teshub) ham e'tiqod qilganlar. Shu bilan birga quyosh va hosildorlik xudosi Telepin va boshqa ilohlarga sig'inganlar. "Rubaum" (Podsho) quyoshga taqqoslab iloh sifatida ko'rilgan. IJar o'z podsholarini "quyoshim" deb ulug'lab, unga xudo sifatida qarashgan. Yozuvda mixxatdan foydalanishgan va bu holat davlat ishlari, diniy marosimlar bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Bizgacha yetib kelgan yozma manbalar asosini podsholar qoldirgan bitiklar tashkil etadi. Ayniqsa, podsholar Xattusili 1. Telepin va Suppilulium 1 lar davrida yozilgan mixxat bitiklar qadrlidir. Yozma ma'lumotlardan saqlanib qolgan hukmdorlarning "tarjimai hollari" o'ziga xosligi bilan e'tiborni tortadi. Xetlar arxitekturasi somiy xalqlarining madaniy yodgorliklarga juda o'xshash bo'lgan. Xetlarning poytaxti Xattusani ark qismi (hozirgi Buyuqal'a) tik qoyada joylashgan bo'lib, o'sha davr mudofaa tizimi talablariga mos qilib qurilgan edi. Ark devorlari zich terilgan tosh bloklardan iborat bo'lgan. Shaharga kirishda darvoza chetlarida sherlar tasviri toshdan o'yib ishlangan. Bogaz Koy va Eyuk manzilgohlari ham tabiiy qoyalar yon bag'rida joylashgan bo'lib, u yerdagi devoriy suratlar Xett madaniyatining yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi. Eyukda mahobatli sfinks haykallari topilgan va shu bilan birga Kichik Osiyo xalqlari madaniyatiga xos ikki boshli burgut tasvirini ham uchratish mumkin. Xattusadan sharqda bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan Yazilik manzilgohi diniy marosimlar maskani hisoblangan. Xetlarning toshdan yaratgan haykallari garchand Mesopotamiyadagi kabi haybatli bo'lmasada, ammo ulug'vorligi jihatidan ulardan qolishmas edi. Ayniqsa, toshdan qurilgan qal'a inshootlari, mudofaa devorlarini qurish yuksak darajada bo'lgan. Xett davlatini "dengiz xalqlari" halokatga uchratganidan keyingi asrlarda ham ularni madaniy merosi boshqa qo'shni mamlakatlar madaniyatlarida o'z izini qoldirgan. [3].

Xetlar madaniyati miloddan avvalgi 2-ming yillikda ravnaq topgan Xett podsholigida shakllangan madaniyat. Podsholar qarorgohi bo'lgan Xattusas shahri (Kichik Osiyodagi hozirgi Bog'ozko'y shahri) barcha xett shaharlari kabi doirasimon tarhli, mudofaa devor va inshootlarga alohida ahamiyat berilgan, shaharning qo'sh devori burj, minoralar bilan mustahkamlangan. Binolar haykal, relyeflar bilan bezatilgan. Shahar darvozalarining ikki yoniga ulkan sher haykali, sfinkslar o'rnatilgan. Bog'ozko'y yaqinidagi Yozuvliqoya relyeflari (miloddan avvalgi XVI—XIII asrlar) da sher ustida tik turgan kishilar aks ettirilgan, 2 boshli burgut tasviri gerbni eslatadi. Ba'zi relyeflarda, xetlarning doirasimon tamg'alaridagi kabi, ramziy tasvirlar uchraydi. Miloddan avvalgi 1600 yilda qadimgi xetlarda haykaltaroshlik, kulolchilik taraqqiy etgan o'rdakburun shaklidagi ko'zachalar, hayvonlar shaklida ishlangan idishlar, ma'budlar va boshqalar tasvirlangan. [4].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xetlar ma'daniyati tarixda o'zining ilg'or yutuqlari, boy adabiyoti, me'morchiligi va ijtimoiy tizimi bilan ajralib turadi, bu esa ularning qadimiy dunyo tarixidagi muhim o'rnini belgilaydi. Xetlar o'zining yozma huquqiy tizimi bilan tanilgan, eng mashhuri "Xet huquqi" bo'lib, bu hujjat o'z davrida yirik inqilobiy yutuq edi. Shuningdek, Xetlarning adabiyati, jumladan, diniy matnlar, afsonalar va she'riy asarlar, ularning ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Xetlar san'ati, asosan, haykallar, naqshli keramika va zargarlik ishlari bilan mashhur bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustam Rajabov „Qadimgi dunyo tarixi“ Toshkent-2009

2. Abdujabbor Kabirov „Qadimgi Sharq tarixi” Toshkent-2016
3. A.G.Xolliyev. „Jaxon tarixi” O’quv qo’llanma „Navruz” nashriyoti 2018
4. Ravshan Rajabov „Jaxon tarixi” Toshkent-2015.
5. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
6. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144
7. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System // *Journal of Pharmaceutical Negative Results*. – 2022. – С. 984-989.
8. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes // *Journal of Survey in Fisheries Sciences*. – 2023. – Т. 10. – №. 1S. – С. 5000-5006.
9. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization // *Global Scientific Review*. – 2023. – Т. 13. – С. 7-10.
10. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o’g’li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ // *TADQIQOTLAR. UZ*. – 2024. – Т. 40. – №. 4. – С. 135-139.
11. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o’g’li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ // *TADQIQOTLAR. UZ*. – 2024. – Т. 40. – №. 4. – С. 135-139.
12. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY // *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*. – 2024. – Т. 4. – №. 07. – С. 30-35.
13. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION // *International Scientific and Current Research Conferences*. – 2024. – С. 94-97.
14. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI // *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*. – 2024. – Т. 12. – №. 1. – С. 20-24.
15. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O ‘ZBEKISTON TA’LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI // *Universal xalqaro ilmiy jurnal*. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 286-289.
16. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION // *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT*. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 743-749.
17. Azamova S. UMUMTA’LIM MAKTAB O ‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI // *Interpretation and researches*. – 2024.
18. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI // *Talqin va tadqiqotlar*. – 2024. – Т. 1. – №. 1.
19. Ayonovna A. S. A. A. S. YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING SAMARALI YO ‘LLARI VA BOSQICHLARI // *Farg'ona davlat universiteti*. – 2023. – №. 6. – С. 136-136.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).